

ISLOM BANKLARINING PAYDO BO'LISHI, ODATIY BANKLARDAN FARQI VA TAMOYILLARI

Sayfullayev Sanjarbek Nurilla o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali talabasi

E-mail: sanjarbeksayfullayev062604@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiyotda islom moliyasi tushunchasi va islom moliyasiga oid iboralar. Islom moliyasining O'zbekistonda tutgan o'rni va tamoyillari. Islom banklarining paydo bo'lishi va tijorat banklaridan farqi. Islom moliyasiga oid tashkilotlar hamda ularning ishlash prinsipi.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, islomiy banklar, murobaha, takaful, mushoraka, mudoraba, ISDB, ICD, ITFC, IRTI.

Annotation. The concept of Islamic finance in the modern economy and expressions related to Islamic finance. The role and principles of Islamic finance in Uzbekistan. The emergence of Islamic banks and their difference from commercial banks. Organizations related to Islamic finance and their principle of operation.

Keywords: Islamic finance, Islamic banks, murobaha, takaful, mushoraka, mudoraba, ISDB, ICD, ITFC, IRTI.

Аннотация. Понятие исламских финансов в современной экономике и выражения, связанные с исламскими финансами. Роль и принципы исламских финансов в Узбекистане. Появление исламских банков и их отличие от коммерческих банков. Организации, связанные с исламскими финансами, и принцип их работы.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, мурабаха, такафул, мушарака, мудараба, ISDB, ICD, ITFC, IRTI.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan, taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisiga chiqayotgan bir davrda yashar ekanmiz, bank va moliya sohalari nafaqat jahon miqyosida, balki, O'zbekistonda va har birimizning hayotimizda muhim ro'l kasb etmoqda. Atrofga qunt bilan nazar soladigan bo'lsak, albatta, yurtimizda bank moliya tizimini har tomonlama jadal rivojlantirish va isloh qilish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. Afsuski, yurtimizda bank moliya sohasi kundun-kunga isloh qilinib, turli xil yangiliklar va imtiyozlar berilayotgan bo'lsada, hali ham bugungi kunda hattoki jahon iqtisodiyotida va amaliyotida dolzarb bo'lgan, islom moliya tizimiga asoslangan islomiy bank tizimi bizda amal qilayotgani yo'q.

“Islom banki” moliyachilar olamida yangi tushuncha emas. Biroq “Dinni bank ishi bilan birlashtirish mumkinmi?”, degan savol tug'ilishi tabiiy. Aslida esa, islom

moliyasi va islom banki tamoyili orqali juda katta muvoffaqiyatli natijalarga erishish mumkin.

Islom banklari tarixi. Arab mamlakatlaridagi banklar Amerika va Yevropa valyuta tizimlariga nisbatan yangi hodisadir. Birinchi islomiy moliyaviy tashkilot 1963-yilda Misrda tashkil topgan. Asoschisi Mit Ghamr bo'lib, u jismoniy shaxlarning mablag'larini jalb qilgan va ularni investitsiyalarga kiritgan. Mit Ghamr banki 1967-yilgacha faoliyat olib brogan.

1971-yilda Qohirada Naser ijtimoiy banki ochildi. Moliya muassasasi ishlab chqarish uchun foizsiz kreditlar berdi va loyiha muvoffaqiyatli bo'lsa, foydani bo'lishishgan. Shuningdek, bank muhtojlarga yordam berib, talabalarga o'qish uchun kreditlar bergan.

Naser ijtimoiy bankidan keyin 1975-yilda Dubay islom banki tashkil qilindi. U Dubay va Quvayt hukmdorlari tomonidan barpo etildi. Dubay islom bankining kapitali 50 million dirhamni tashkil qilardi.

Eron, Pokiston, Sudan ishbilarmonlari islom normalari asosida ishlaydi. Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Bruney, Saudiya Arabistonida ikkala turdagi moliyaviy institutlar mavjud. Rossiyada islom banklari juda kam. 1990-yillarda Badr-Forte bank shariy bank tizimi bo'yicha ishlagan. Unga texnika fanlari doktori Adelat Jabiyev asos solgan.

Islom banklari shariat qonunlari asosida ishlaydi. Faqat aniq loyihalar uchun foizsiz pul taklif qiladi. Islom bankining an'anaviy banklardan asosiy farqi depozitlar bo'yicha foizlarning taqiqlanishidir. Islom banki qarzning muddati va hajmiga qarab oldindan belgilangan foizni taqiqlaydi. Musulmonlar foyda olishlar mumkin, ammo buning uchun foizdan foydalana olmaydi. Islom banklari foiz olmaydi. U kreditor emas, investorga aylanadi. Shunga ko'ra, u tadbirkor bilan riskni baham ko'radi.

Shariat tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi bank mablag'larni faqat real biznesga sarmoya kiritish uchun oladi. Barcha bank xizmatlari shunday tuzilganki, daromad faqat real, ya'ni haqiqiy biznesdan olinadi. Islom moliyasida qimor o'yinlari va qimmatli qog'ozlar bilan bajariladigan operatsiyalar ta'qiqlangan. Buning sababi, ular bilan ishlash katta riskni talab qiladi va mijoz investitsilarni yo'qotishga majbur bo'lishi mumkin.

Islom banklarida tijorat banklaridan anchagina farq qiluvchi o'ziga xos iboralar ham mavjuddir.

❖ **Murobaha** mashxur xizmatlardan biridir. Bu tijorat bankidan olingan kredit yoki lizingga o'xshaydi. Moliyaviy muassasa ma'lum bir sotuv uchun pul ajratadi. Qarzdor olingan mablag'ni to'liq to'lamagunicha mulk muassasaga tegishli bo'ladi.

❖ **Takaful** islom moliyasiga asoslangan sug'urta hisoblanadi.

❖ **Mushoraka** bu bir nechta investorlar tomonidan g'oya yoki biznesni birgalikda moliyalashtirishni o'z ichiga oladi. Jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga bunda ishtirok etishga ruxsat beriladi.


Mushokaradagi foyda quyidagicha taqsimlanadi:

✓ Sherik o'z ishi, loyihadagi ishtiroki va boshqaruv qobiliyati uchun ulush oladi;

✓ Foydaning qolgan qismi investor yoki sherik bo'lgan moliya instituti o'rtasida bo'linadi. Miqdor loyihaga qo'shilgan hissa darajasiga bog'liq va ishtirokchilarning xarajatlariga mos keladi;

✓ Kompaniya zararlarini bitim ishtirokchilari qo'shgan mablag'ga qarab taqsimlaydi.

❖ **Mudoraba** omonatlarni joylashtirishda qo'llaniladigan ibora hisoblandi. Pul egasi o'z pulini bankka beradi, ikkinchisi esa uni biznesini rivojlantirish uchun tikadi. Foydani taqsimlash jarayoni oldindan belgilab qo'yilgan. An'anaviy moliya tizimida bu venchur moliyalashtirish deb ataladi.



1-rasm. Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo(yashil) va kuzatuvchi(ko'k) davlatlar, Suriyaning a'zoliqi vaqtincha to'xtatilgan(qizil). (rasm kun.uz saytidan yuklab olindi)

Islom moliyasi O'zbekistonda. Albatta, islom banklari O'zbekistonga ham kirib kelishi va o'zining xizmatlarini bizning yurtimizda ham targ'ib qilinishi uchun bir qator strategik maqsadlarni qo'yish va shunga muvofiq tarzda muammolarni bartaraf etish lozim. Shuning uchun ham yurtimizda bank kredit tizimini yanada takomillashtirish va asosan foizli kreditlarni kamaytirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda parlamentga murojatnomasida "Islomiy Tijorat banklari" yurtimizda o'z faoliyatini boshlashini ta'kidlab o'tgan edilar va shu munosabat bilan O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini tashkil etish bo'yicha takliflar o'ranilmoqda.

Yurtimizda Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramay shu paytgacha O'zbekistonda islom moliyasi sohasi deyarli rivojlanmagan

.Vaholanki bu soha rivojlanishiga mamlakatimiz juda kata salohiyatga ega va bu yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlari ekspertlari tomonidan ham tan olingan. Jumladan, Islom Taraqqiyot Banki(IsDB), Xususiy Tarmoqni Rivojlantirish(ICD), Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi(ITFC), Islom tadqiqotlar va treninglar instituti(IRTI) islom moliyasini rivojlantirishda hozirgi kunga qaradar mamlakatimizga 2 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'larni yo'naltirganlar. Biznes vakillari tomonidan Islom moliyasiga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida O'zbekiston 2003 yilda IsDB ga va 2004 yilda ICD ga a'zo bo'ldi va bu islom moliyasining O'zbekistonga kirib kelishiga zamin yaratdi. 2019 –yilda birinchi bo'lib islomiy sug'urta kompaniyasi faoliyatini boshladi, MDH davlatlarida birinchilardan bo'lgan elektron Murobaha – savdo bitimi asosida moliyaviy mahsulot platformasi ishlab chiqildi.

Mamlakatimiz yaqin qo'shnisi bo'lgan Tojikistonda tashkil etilgan Tavhidbanki bu yerdagi ilk islom moliyaviy banki hisoblanadi. Mazkur bank 1999-yil 24-avgustda "Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash aksiyadorlik tijorat banki" sifatida ta'sis etilgan bo'lib, 2002 yil 22-mayda "Sohibkorbank" nomi bilan qayta tashkil etilgan. Bank tashkil topgan kundan boshlab mamlakat moliya xizmatlari bozorining faol, ishonchli va barqaror ishtirokchisi sifatida tanilgan. 2019 yil 1-iyuldan bank nomi "Tavhidbank"ga o'zgartirildi va 2019 yil 16-sentyabrdan boshlab Tojikistondagi birinchi Islom banki sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bankning sof foydasi 4,3 million so'mni tashkil etdi. Moliyaviy portfelning sof daromadi o'tgan yilga nisbatan 370 foizga o'sdi. Komissiya daromadi, asosan, hisob-kitob operatsiyalari va kafolatlar hisobiga 20 foizga o'sdi. 2021-yil 30-noyabr holatiga ko'ra, kapital o'tgan yilga nisbatan 21 foizga ko'payib, 110 million so'mni tashkil qildi. Bank aktivlari 32 foizga o'sgan holda 181 million so'mni tashkil etdi. Bankning moliyalashtirish portfeli 155 foizga oshib, 23 million so'mni tashkil etdi.

Mening fikrimcha, O'zbekistondagi xalqaro islom tashkilotlari, ta'lim muassasalari, islom bank moliya muaassasa va tashkilotlari o'zlarining tor milliy doirasidan tashqariga chiqishi va islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy qilgan davlatlar tajribasini o'rgangan holda, moliya bozori ishtirokchilari orasida keng targ'ib qilishi va shu orqali islom moliyasi mohiyatini tushunib yetishi darajasini oshirish zarur. Islom bankchiligini tashkil etish orqali, ko'pchilik qismi musulmon bo'lgan davlatlarda, samarali faoliyat yuritish va davlat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda islom moliyasini tashkil qilish bo'yicha uchun quyidagilar yechim bo'lishi mumkin:

- ✓ Avvalo mamlakatimizda markaziy islom bankini tashkil etish;
- ✓ Mukammal bo'lgan huquqiy va siyosiy bazani yaratish;
- ✓ Islom banklarida shariy kengashlarni va turli xalqaro muvofiqlashtiruvchi markazlar tashkil qilish;

✓ Islom bank moliya tizimini joriy etgan va islom moliyasini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratgan mamlakatlarning muvofiqlashtiruvchi tashkilotlari bilan keng ko'lamli sherikchilik aloqalarini bog'lash.

Albatta ishonamizki, islomiy bankning tizimini mamlakatimizga kirib kelishi natijasida O'zbekiston MDH davlatlari o'rtasida yetakchilik qilishi mumkin. Xulosa qilib aytsak, islomiy bankning xizmatlar sohasi yurtimizning porloq kelajagi uchun muhim shart sharoitlar yaratib, poydevor va yanda rivojlanish istiqboli bo'ladi. Hamda mana shu ishlarning natijasida, O'zbekiston madaniyatida islomning chuqur ildizlari aks etgan mamlakat hisoblanib o'z jozibadorligi bilan xorijiy investorlarni yanda ko'proq jalb qila oladi. Bu imkoniyat orqali davlatimiz aholi farovon hayoti barqaror rivojlanishiga katta qadamlarni qo'ya oladi desak adashmaymiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pul kredit va banklar. Darslik /A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev. Soliq akademiyasi, Toshkent moliya instituti.-T:" Iqtisod- Moliya", 2012
2. "Banklar va bank faoliyati haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T."O'zbekiston"- 1996.
3. Moliya bozori: Darslik/ S. Elmirzayev va boshqalar; - T: "Iqtisod –Moliya"
4. СукукюШариатский стандарт№1/ Пер с англ;[Ред совет:Р.Р Вахитов и др] ; Орг. Бухюучетаи аудита исламских фин. Учреждений (AAOIFI). –М : Исламская книгаб 2010.
5. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021).ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES.
6. <https://kenta.uz/islom>
7. <https://lex.uz/docs/-4351726>
8. Sh. Mirziyoyev. "Oliy majlisga murojaatnomasi", 29.12.2020y